



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva</b> Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
<b>Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov</b> Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
<b>Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov</b> Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
<b>Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov</b> Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Nuriddin Elamonovich Ernazarov</b> Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
<b>Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov</b> Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
<b>Зариф Юсупович Аминов</b> Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
<b>To’lqin Ismatulla o’g’li Yahyoyev</b> Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов</b> Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
<b>Шахриёр Шодиёрович Тураев</b> Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
<b>Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova</b> Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Feruz Kubaymurodovna Ismoilova</b> Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov</b> Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
<b>Khasan Khankeldiyev, Shakhrukh Bobojanov</b> A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

# МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ

Nuriddin Elamonovich Ernazarov — SamISI, Moliya kafedrası dotsenti., PhD

## JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘INING SOLIQ BAZASINI HISOBLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblash amaliyotini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada yetuk iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilgan va statistik ma‘lumotlar asosida tahlillar olib borilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq, jismoniy shaxs, mulk, ko‘chmas mulk, mahalliy soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, ko‘chmas mulk solig‘i, kadastr qiymati, bozor qiymati, soliq stavkasi.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida byudjet daromadlarini oshirish muhim va murakkab jarayon bo‘lib hisoblanadi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, infrastrukturani tiklanishi, kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish, o‘rni kelganda aytish mumkinki, aholini rozi qilish, har bir hududdagi mahalliy byudjetlarning moliyaviy masalalarini to‘g‘ri hal qilishga bog‘liqdir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirishda turli davlat organlarining soliqlar va yig‘imlarni undirishdagi vakolatlarini yanada kengaytirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashabbuslari bilan soliq tizimini mahalla darajasiga tushirish bo‘yicha yangi institut joriy qilinib, “Mahalla yettiligi”ga soliq xodimlari ham qo‘shilganligi bu boradagi muhim qadamlardan biridir. Ushbu yangi tizimni joriy etilishi natijasida 2023-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk soliqlaridan prognozga nisbatan qo‘shimcha soliq tushimi byudjetga tushirilgan. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlaridan tushumlar o‘sganligi muhim ahamiyatlidir.

Bugungi kunda fuqarolarga tegishli mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy qilish mol-mulklardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish yo‘llari hamda undagi muammolar bo‘yicha nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalar borasida bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Y.Shmelyova va R.Margulislar (2012) ham jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulklarni soliqqa tortish ko‘p muammolarni keltirib chiqarish mumkinligi, shuningdek yagona ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilishda uning soliq solinadigan bazasini aniqlash va soliq stavkasini belgilash asosiy masala ekanligi ta’kidlashgan[1].

I.Gorskiy (2012) va M.Beryozinlar (2011) ham amaliyotga yagona ko‘chmas-mulk solig‘ini joriy qilishda ehtiyotkorlik bilan va puxta hisob-kitoblar asosida o‘tish kerakligini ta’kidlashgan[2].

T.Loginova (2018) o‘zining ilmiy qarashlarida ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilish va uni amaliyotga tatbiq etishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd qilib o‘tgan[3].

T.Loginova (2018) o‘zining ilmiy qarashlarida ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilish va uni amaliyotga tatbiq etishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd qilib o‘tgan[4].

O‘zbek olimlaridan I.Niyazmetov (2008) ham bu borada fikr yuritib mol-mulk solig‘i obyektini tarkibida faqat ko‘chmas mulk obyektlarini qoldirib, uni yer solig‘i bilan birlashtirib yuridik va jismoniy shaxslar uchun bir xil tartibda amal qiladigan ko‘chmas mulk solig‘iga bosqichma-bosqich o‘tish taklifini ilgari surgan[5].

Iqtisodchi olimlarning fikrga qo‘shilgan holda mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy va tizimli tahlil usullardan foydalanilgan. Maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish muhim va murakkab masala bo‘lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk ob‘ektlariga mol-mulk solig‘ini hisoblash amaliyotidagi muammolar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- davlat ro‘yxatidan o‘tmagan ko‘chmas mulk ob‘ektlarini aniqlash bo‘yicha aniq bir samarali mexanizmning amalda mavjud emasligi;

- har bir ko‘chmas mulk ob‘ekti uchun **shaffof, texnologik** va **obyektiv** baholash tizimini mavjud emasligi;

- soliq tizimi bilan kadastr agentligi ma’lumotlar bazasining o‘zaro to‘liq integratsiyalashmaganligi;

- o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlar hujjatlashtirishda mulk egalarning huquqiy savodxonligini pastligi;

- ko‘chmas mulk ob‘ektlarini kadastr hujjatlarini shakllantirishda xizmat ko‘rsatish narxlarining yuqoriligi.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlariga mol-mulk solig‘ini hisoblash amaliyotidagi muammolarni bartaraf etish orqali mol-mulk solig‘ini mahalliy byudjet daromadlaridagi ulushini oshirishga erishish mumkin. Mahalliy byudjet daromadlari byudjet xarajatlariga nisbatan pasayishi kutilmoqda. Ushbu holatni so‘nggi vaqt yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya’ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**2019-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning ahamiyati,[6] (foizda)**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
	Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami	100	100	100	100	100
1	Mahalliy soliqlar	42,2	26,8	25,3	25,7	26,1
	Shundan;					
2	Mol-mulk solig‘i	6,7	7,1	7,6	7,7	7,8

Ma’lumki, 2019-yilda 42,2% bo‘lgan ulush 2020-yilda keskin 26,8% ga tushgan. Bu pandemiya davrida iqtisodiy faollikning kamayishi, soliq imtiyozlari berilishi yoki soliqqa tortish bazasining qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2021–2023-yillarda mahalliy soliqlar ulushi 25%–26% atrofida barqarorlashgan. Bu, mahalliy byudjetlar daromadlarining nisbatan stabilashganini ko‘rsatadi, biroq 2019-yil darajasiga yetmagan.

Mol-mulk solig‘i ulushining o‘zgarishini ko‘radigan bo‘lsak 2019-yilda 6,7% bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 7,8% ga yetgan, ya’ni har yili oz miqdorda oshib borgan. Bu davlat tomonidan mol-mulk solig‘ini modernizatsiya qilish, baholash tizimini isloh qilish va ko‘chmas mulk bozorining faollashuvi natijasi bo‘lishi mumkin.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki mol-mulk solig‘i ulushiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

- raqamlashtirilmagan, ro‘yxatdan o‘tmagan yoki soliq organlariga ma’lum bo‘lmagan obyektlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, soliq tushumi shunchalik kam bo‘ladi;

- mol-mulk solig‘i hisoblanishida kadastr (ya’ni rasmiy baholash) narxi asos qilinadi. Agar kadastr bahosi real bozor narxlaridan orqada bo‘lsa, soliq miqdori ham kam hisoblanadi;

- davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari o‘zgartirilishi mumkin. *Ayrim soliq imtiyozlarini bekor qilish* ham soliq tushumlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

-yangi qurilayotgan uy-joylar, savdo va ishlab chiqarish obyektlari ko‘payadigan bo‘lsa, soliq bazasi kengayadi;

-davlat tomonidan mol-mulkni legallashtirish va qayta baholash aksiyalari o‘tkaziladi;

-aholidagi real daromadlar pasayganda, mol-mulk solig‘ini to‘lashda kechikishlar yoki qarzdorliklar ortib borishi mumkin. Bu holat tushumlar ulushini pasaytirishga ta’sir etadi.

Mol-mulkni solig‘ini hisoblanishida soliq bazasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i uchun eng kam soliq bazasi belgilanishi ya’ni eng kam soliq bazasi — 42 mln so‘m (hatto bozor bahosi bundan kam bo‘lsa ham). Agar rasmiy baholash mavjud bo‘lmas-da Toshkent, Nukus, viloyat markazlari — 210 mln so‘mlik, boshqa shahar va qishloq joylar — 84 mln so‘mlik qiymatni tashkil etadi.

Shu asosida bizningcha, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblashni takomillashtirish asosida aniq va adolatli soliq bazasini shakllantirish bo‘yicha loyihaviy mexanizmni ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu loyihaviy mexanizmni maqsadi sifatida jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulk ob’ektlarini baholash va soliq bazasini shakllantirishda haqiqiy bozor qiymatini inobatga olgan holda, soliqni hisoblashda aniqlik va adolatni ta’minlashdan iboratdir.

Amaldagi holatda mavjud muammolar qatoriga esa:

-eng kam soliq bazasi (42 mln so‘m) haqiqiy holatni aks ettirmasligi.

-baholash yo‘q obyektlar uchun umumiy shartli qiymat (210 mln va 84 mln so‘m) - barcha mulklarga bir xil yondashuv.

-qishloq va shahar mulki o‘rtasida katta narx farqi mavjud.

-jamoatchilik uchun shaffof ma’lumot yo‘q.

Ushbu loyihaviy mexanizmni yechimi sifati quyidagilarni amalga oshirish zarur: Avtomatlashtirilgan onlayn baholash platformasi + soliq bazasini hududlashtirish + jismoniy shaxslarning mulkni baholash imkoniyatini kengaytirish. Bilan bozor narxlarini hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan baholash platformasi joriy etish konsepsiyasida geolokatsiya - mulk manzili asosida tur, hudud va zona aniqlanadi.

Mulk ma’lumotlari asosida - maydon, qurilgan yili, materiali, infratuzilmasi aniqlanadi. Ko‘chmas mulk bozori ma’lumotlari-avtomatik ravishda hududiy narxlar bazasi bilan solishtiriladi. Avtomatik baholash bilan maxsus formula asosida shartli qiymat avtomatik hisoblanadi.

Soliq bazasi hisoblash formulasi (misol):

$$SB = \text{Maydon (m}^2\text{)} \times 1 \text{ m}^2 \text{ uchun hududiy koeffitsiyent} \times \text{imtiyoz koeffitsiyenti}$$

Misol uchun: 80 m<sup>2</sup> uy, viloyat markazida, 1 m<sup>2</sup> uchun baholash koeffitsiyenti = 2.5 mln so‘m.

Soliq bazasi: 80 × 2.5 = 200 mln so‘m

Hududiy koeffitsiyentlar (misol uchun):

	Hudud	1 m <sup>2</sup> uchun baholash (mln so‘mda)
1	Toshkent sh.	4.0
2	Viloyat markazlari	2.5
3	Tuman markazlari	1.5
4	Qishloq joylar	0.8

**Loyihaviy mexanizmning samarasi:**

- soliq tushumlarini oshiradi.
- bozor qiymatiga yaqinlashgan aniq soliq bazasi ta’minlanadi.
- shaffoflik va fuqarolar ishonchini oshiradi.
- soliqdan qochish holatlari kamayadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida aytish joizki, jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar uchun adolatli va aniq soliq bazasi shakllantiriladi. Soliq tizimining barqarorligi, davlat byudjeti daromadlari oshishi va aholi roziligi ta’minlanadi.

- haqiqiy bozor narxlarini hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan baholash platformasi joriy etish zarur. Bundan maqsad: shartli qiymat o‘rniga, har bir mulk uchun real va adolatli soliq bazasini yaratish. Yangilanadigan onlayn mulk baholash servisini joriy etish natijada, soliq

to‘lovchilar real qiymatdagi mol-mulkka mutanosib soliq to‘laydi.

- amaldagi soliq stavkalari negizida hududiy soliq stavkalarini joriy etish lozim. Bundan maqsad: shaharlar va qishloqlardagi mulklar o‘rtasidagi bozor qiymatlaridagi katta farqni hisobga olish zarur.

-ijtimoiy zaif qatlamlar uchun soliq imtiyozlari mexanizmini takomillashtirish zarur. Bundan maqsad: soliq to‘lash imkoniyati cheklangan aholini qo‘llab-quvvatlash lozim. Umumiy tartibda emas, balki oylik daromad, ijtimoiy holati asosida imtiyoz berish tizimini joriy qilish zarur.

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini soliqqa tortish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur. Bundan maqsad: fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, shaffoflikni ta‘minlashdir. Har bir mulk uchun soliq hisoblash jarayonini my.soliq.uz orqali onlayn kuzatish imkonini berish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Шмелев Ю.Д., Маргулис Р.Л. (2012) О новой концепции налога на недвижимость физических лиц и механизм ее реализации // Финансы. № 1.

2.Горский И. В. (2012) Налог на недвижимость: за и против // Финансы. № 2.18., Березин М.Ю. (2011) Новый налог на недвижимость в российской налоговой системе // Финансы. № 4.

3.Логинова Т.А. (2018) Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диис. автореферати. -М.: б. 7.

4.Логинова Т.А. (2018) Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диис. автореферати. -М.: б. 7.

5.Niyazmetov I.M. (2008) Soliq yukining tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy faoliyatiga va byudjet daromadlariga ta’siri tahlili. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. -T.: b. 99 b.

6. <https://openbudget.uz> - O‘zbekiston Respublikasi ochiq byudjet portal.

<p><b>Н.Эрназаров</b></p> <p><b>Совершенствование практики исчисления налоговой базы по налогу на имущество физических лиц</b></p>	<p><b>N.Ernazarov</b></p> <p><b>Improving the practice of calculating the tax base for property tax of individuals</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В статье рассматриваются реформы, проводимые с целью совершенствования практики исчисления налога на имущество физических лиц, научные взгляды выдающихся экономистов по этому вопросу, а также проводится их анализ на основе статистических данных.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> налог, физическое лицо, собственность, недвижимость, местный налог, налог на имущество, земельный налог, налог на недвижимость, кадастровая ценность, рыночная ценность, налоговая ставка.</p>	<p><b>Abstract.</b> The article examines the reforms carried out with the aim of improving the practice of calculating the property tax of individuals, the scientific views of outstanding economists on this issue, and also analyzes them based on statistical data.</p> <p><b>Keywords:</b> tax, individual, property, real estate, local tax, property tax, land tax, real estate tax, cadastral value, market value, tax rate.</p>

**Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li Qilichov** – SamISI, “Menejment” kafedراسи assistent-stajyori

**SUG‘URTA BOZORLARI VA GLOBAL TURIZMNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

<p><b>Аннотация.</b> Ushbu maqolada global sug‘urta bozori va turizm industriyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning o‘shishiga ta’sir etuvchi omillar hamda iqtisodiy barqarorlikdagi roli tahlil qilingan. Turistik sug‘urtaning turlari, sayyohlar xavfsizligi va xalqaro risklarni kamaytirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Xalqaro statistik ma‘lumotlar asosida turizmga mos ravishda sug‘urta xizmatlariga talab dinamikasi yoritilgan. Natijada, sug‘urtaning sayohat xavfsizligi va moliyaviy himoyadagi strategik rolini ochib berilgan.</p> <p><b>Калит so‘zlar:</b> sug‘urta mukofotlari, xalqaro sayohatchilar, COVID-19 pandemiyasi, sug‘urta bozori, turizm statistikasi, iqtisodiy ta’sir, tibbiy sug‘urta, global sug‘urta industriyasi.</p>
---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.